

SINFDAN TASHQARI MASHG‘ULOTLARNI TASHKIL ETISH VA ULARNING AHAMIYATI

Xolmurodova Nargiza

Navoiy davlat universiteti talabasi

Ilmiy rahbar: Sayfullayeva Gulhayo

Navoiy davlat universiteti professori

Annotatsiya. Dars jarayonini bevosita to‘ldiruvchi ta‘lim shakllaridan biri darsdan tashqari ishlardir. Ko‘pincha “darsdan tashqari” jumla “sinfdan tashqari” odatiy jumla o‘rniga ishlatiladi, buning sababi shundaki, birinchi jumla fanlardan hamma mashg‘ulotlar turini qamraydi.

Kalit so‘zlar: dars, sinfdan tashqari ishlar, mustaqil ish, mashg‘ulot, to‘garak, astronomik kuzatishlar.

ОРГАНИЗАЦИЯ ВНЕКЛАССНЫХ ЗАНЯТИЙ И ИХ ЗНАЧЕНИЕ

Аннотация. Одной из форм обучения, которая непосредственно дополняет процесс обучения, является внеклассная деятельность. Выражение «вне классной комнаты» часто используется вместо более распространенного выражения «вне класса», поскольку первое охватывает все виды деятельности, от предметов до предметов.

Ключевые слова: урок, внеклассная работа, самостоятельная работа, упражнение, кружок, астрономические наблюдения.

ORGANIZATION OF EXTRA-CURRICULAR ACTIVITIES AND THEIR IMPORTANCE

Annotation. One of the forms of learning that directly complements the learning process is extracurricular activities. The expression "outside the classroom" is often used instead of the more common expression "outside the classroom", since the former covers all types of activities, from subjects to subjects.

Key words: lesson, extracurricular work, independent work, exercise, circle, astronomical observations.

KIRISH

Sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish va o‘tkazish ta‘lim–tarbiya ishining muhim shakllaridan biri hisoblanadi.

Ta‘lim–tarbiya berishning bu maxsus shakli talabalarda ilmiy tushunchalarni shakllantiradi va mustaqil ishlashga imkoniyat ochib beradi. Chunki sinfdan tashqari ish dasturi fan o‘qituvchilari tomonidan tuziladi.

Astronomiya fanidan darsdan tashqari ishlarning turlari quyidagicha:

Shaxsiy	Guruhiy	Ommaviy
1. Qo‘shimcha adabiyot va jurnallarni o‘qish; 2. Referat tayyorlash; 3. Uy vazifalarini tayyorlash; 4. Model va asboblarni tayyorlash;	1. Fakul’tativ mashg‘ulotlar bilan shug‘ullanish; 2. To‘garaklar tashkil qilish; 3. Ekskursiyalar uyushtirish; 4. Astronomik kuzatishlarni tashkil etish;	1. Astronomik olimpiada; 2. Astronomiya oyligi; 3. Astronomik kecha; 4. Ilmiy –ommaviy konferensiya;

Astronomiya kursidan mashg‘ulotlar tizimi – darslardan tashqari ekskursiyalarni va kuzatishlarni, uyda bajariladigan mashg‘ulotlarni, fakul’tativ mashg‘ulotlarni, har xil shakldagi sinfdan tashqari mashg‘ulotlarni o‘z ichiga oladi. O‘quv ishlarini jonlantirishda, kuchli bilim berishda hamma shakldagi o‘quv mashg‘ulotlarini ham hisobga olish zarur.

O‘qituvchi har bir dars yoki sinfdan tashqari ishlar oldidan asosiy bosh vazifani aniqlab oladi. Uni hal qilish – o‘qitish metodini, mashg‘ulot shakllarini va uning tuzilishini to‘g‘ri tanlashga bog‘liq bo‘ladi.

Sinfdan tashqari ishlar talabalarning umumiy ta‘lim va ilmiy dunyoqarashini boyitish uchun, vatanparvar ruhida tarbiyalash uchun va ijodiy tashabbuskorlarini oshirish uchun keng imkoniyatlar ochib beradi. Ular talabalarning qiziqishlarini hisobga olgan holda tashkil qilinadi.

Sinfdan tashqari ishlar tasodifiy va reja asosida bo‘lishi ko‘zda tutilgan. Tasodifiy ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulotlarga astronomiya sohasidagi esdalik sana yoki ajoyib voqealarga bag‘ishlangan astronomiya kechalari, qiziqarli va jumboqli astronomiya kechalari, olimpiadalar, konferensiyalar va hakazolar kiradi.

Hozirgi kunda ta‘lim-tarbiyaviy ishlar bo‘yicha dars mashg‘ulotlariga ajratilgan vaqtning tanqisligi seziladi albatta (ayniqsa, astronomiya fanidan, Koinot “sirlarini ochayotgan” bir paytda). Lekin o‘qituvchi aslo “bo‘sh kelmasligi”, bor pedagogik mahoratini ishga solib, dars mashg‘ulotlari jarayonida berilishi lozim bo‘lgan mavzularni yoritishdagi bir qator qo‘shimcha ma‘lumotlarni darsdan tashqari ishlarni jonlantirish orqali amalga oshirish muhim ahamiyat kasb etadi. Xususan, astronomiya faniga bag‘ishlab bir qator kechalarni tashkil etilishi, o‘quvchilarning fan asoslarini yanada mustahkam o‘zlashtirishlari bilan bog‘liq masalalarni hal qilishga yordam beradi. Bunday kecha va tadbirlarni tashkil etilishi, o‘qitishning samarali va ko‘ngilli bo‘lishini ta‘minlash bilan birga o‘qituvchiga nisbatan o‘quvchilarda ijobiy munosabatlarni uyg‘otadi. Ya‘ni o‘qituvchi o‘quvchilarning ochilmagan qirralarini ko‘rsata oladi, o‘quvchilar bilan yaqinlashib ularda bir qator ijobiy hislatlarni shakllantirishga erishadi.

XULOSA

Bunday tadbir va kechalar tashkil etish maqsadiga ko‘ra turlicha bo‘ladi. Masalan, fan tarixida insoniyat erishgan yutuqlarga, fanning rivojlanishiga hissa qo‘shgan olimlar hayoti va jodiga, ma‘lum astronomik hodisalarni kuzatishlarga bag‘ishlanib o‘tkazilishi ko‘zda tutiladi.

To‘garak ishi va mustaqil ta‘lim reja asosida tartibli ravishda o‘tkaziladigan mashg‘ulot hisoblanadi. To‘garak o‘zgarmas miqdordagi talabalarga ega bo‘lib, to‘garak a‘zolari to‘garak rahbari bilan birgalikda reja bo‘yicha jadval asosida ishlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. A.M. Bozorova oliy Ta‘lim Muassasalarida Astronomiya Kursidan Mashg‘Ulotlarni O‘Qitishda Va Talaba Kompetentligini Oshirishda Integratsiyalashgan Innovatsion Texnologiyalarini Joriy ...Journal Of Science-Innovative Research In Uzbekistan 1 (8), 6-11
2. A.R. Sattorov G. I. Sayfullaeva, Methodology of Application of Innovative Educational Technologies from Astronomy to Laboratory Activities 2021/10/29 European Journal of Life Safety and Stability (2660-9630) 125-128
3. Bozorova Aziza : Sayfullayeva Gulhayo Ixtiyor Qizi Astronomiyadan Stem Dasturidan Foydalanib Quyosh Soati Mavzusini O‘qitish - Yosh tadqiqotchi jurnali, 2022 35-38
4. G.I. Sayfullayeva, H.R. Shodiyev Kredit Modul Tizimida Fanlarni Integratsion Yondashuv Asosida O ‘Qitishning Afzalliklari
5. I.R. Kamolov, G.I. Sayfullaeva -Formation of teacher’s competence in the performance of laboratory and experimental works Journal of critical reviews. ISSN-2394-5125, 2020
6. M Muhabbat, B Aziza, G.I. Sayfullayeva Elements Of The Credit-Module System In Higher Education In The Republic Of Uzbekistan Web Of Scientists And Scholars: Journal Of Multidisciplinary Research 1 (8 ...
7. M Muhabbat, B Aziza, G.I. Sayfullayeva Final Control Work Distant. Tsul. Uz Download Instruction To The Distance Learning Platform Web Of Teachers: Inderscience Research 1 (8), 82-86
8. M Muhabbat, B Aziza, G.I. Sayfullayeva Opportunities For The Use Of Innovative Technologies In The Organization Of Independent Education In The Credit-Module System Web Of Humanities: Journal Of Social Science And Humanitarian Research 1 (8 ...

9. M Muhabbat, B Aziza, GI Sayfullayeva The Use Of Innovative Technologies In The Organization Of Independent Education Web Of Technology: Multidimensional Research Journal 1 (8), 9-11
10. M. Muhabbat, B. Aziza, G.I. Sayfullayeva Advantages Of Independent Education In The Credit Module System In Education Web Of Discoveries: Journal Of Analysis And Inventions 1 (8), 9-13
11. Mukhitdinova, K. A., & Sayfutdinova, N. F. (2022). Status of development of innovative activities of industrial enterprises. Asian Journal of Multidimensional Research, 11(5), 363-368.
12. O'.K.Sunnatova, G.I.Sayfullayeva. Making a vacuum cleaner using the stem education system in students' laboratory classes. Web of Discoveries: Journal of Analysis and Inventions. 2023. 43-47.
13. R. Nilufar, G.I Sayfullayeva Principles Of The Credit-Module System Diversity Research: Journal Of Analysis And Trends 1 (8), 49-52
14. Alisherovna, M. K. (2022). Attracting investment to regions-An important factor of development. Asian Journal Of Research In Banking And Finance, 12(3), 10-13.
15. Sayfullayeva Gulkhayo Ikhtiyor Kizi, Shodiev Khamza Ruziculovich, Xaitova Shakhnoza G'olibjon Kizi Conditions For The Formation Of Teaching Innovation Activities Journal of Pharmaceutical Negative Results, 2023 2420-2423
16. SH. Rozikulovich, S. Gulhayo Methodology For Finding The Topic Of The Earth In Distance Education On The Basis Of An Integrative Approach Journal Of Academic Research And Trends In Educational Sciences 1 (10), 21-33 2022
17. Alisherovna, M. K. (2022). Assessment of investment attractiveness of industrial enterprises.
18. С.С.Канатбаев, И.П.Камалов, Д.И.Камолова, Г.И.Сайфуллаева. “Universum: технические науки”. Россия. Декабрь, 2016. №12(33). 38-40 стр.
19. Худойназаров, Ф. Х. (2024). Кичик Бизнес Субъектлари Фаолиятини Рақамли Технологиялар Асосида Ривожлантириш Билан Боғлиқ Бўлган Муаммолар. International scientific journal of Biruni, 3(2), 245-265.
20. Alisherovna, M. K. (2022). Use of communication networks in the optimization of investment project work. TRANS Asian Journal of Marketing & Management Research, 11(5and6), 49-52.
21. Бободжоновна, З. (2021). Economic regulation of development methods for water injection at explored fields. Общество и инновации, 2(11/S), 37-41.
22. Mukhitdinova, K. (2022). Increasing the Efficiency of Investment Activities of Automotive Enterprises. International Finance and Accounting, 2022(1), 20.